


## IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK



2023-yilning yanvar-sentabrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi



### Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

#### Dastlabki ma'lumotlar


➤ 2023-yilning yanvar-sentabrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi 68,6 % ni tashkil etdi.

➤ Kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga 13,4 birlikni tashkil qildi.

➤ 2023-yilning yanvar-sentabrida 3 272 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 25,9 foizga kam.



#### 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 9 192 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 1 783 ta, sanoatda 5 472 ta, qurilishda 2 104 ta, yashash va ovqatlanishda 1 231 ta, tashish va saqlashda 936 ta tashkil etilgan.

## Yanvar-sentabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2022-y.	2023-y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	38 547	24 559	-13 988
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	4 418	3 272	-1 146
<i>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushlari:</i>				
YAHM	%	68,6	68,6	-
Sanoat	%	22,4	22,7	0,3
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	97,8	98,0	0,2
Investitsiya	%	59,4	70,3	10,9
Qurilish	%	96,6	96,1	-0,5
Chakana savdo	%	93,0	93,0	-
Xizmatlar	%	14,2	14,1	-0,1
Yuk tashish	%	41,0	42,0	1,0
Yuk aylanmasi	%	30,0	33,1	3,1
Yo'lovchi tashish	%	18,3	18,3	-
Yo'lovchi aylanmasi	%	15,3	17,2	1,9
Eksport	%	37,7	29,8	-7,9
Import	%	10,6	16,3	5,7



**2023-yilning yanvar-sentabrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHM va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da**


<b>YAHM</b> 68,6%	<b>Savdo</b> 93,0%
<b>Sanoat</b> 22,7 %	<b>Qurilish</b> 96,1 %
<b>Investitsiya</b> 70,3 %	<b>Eksport</b> 29,8 %
<b>Xizmatlar</b> 64,6 %	<b>Import</b> 16,3 %

**Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

	2022-yil yanvar-sentabr	2023-yil yanvar-sentabr	(+;-)
<b>Andijon viloyati</b>	<b>4 418</b>	<b>3 272</b>	<b>-1 146</b>
<i>shaharlar:</i>			
Andijon sh.	799	764	-35
Xonobod sh.	58	29	-29
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	223	187	-36
Andijon	385	341	-44
Baliqchi	454	187	-267
Bo'ston	152	144	-8
Buloqboshi	139	104	-35
Jalaquduq	185	109	-76
Izboskan	244	167	-77
Ulug'nor	78	101	23
Qo'rg'ontepa	254	181	-73
Asaka	371	256	-115
Marhamat	215	195	-20
Shahrixon	342	198	-144
Paxtaobod	257	147	-110
Xo'jaobod	262	162	-100



**2023-yilning yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da**



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Andijon shahri – 23,3 % Andijon tumani 10,4 %, Asaka tumani – 7,8 %, Shahrixon tumani – 6,1 %, Marhamat tumani – 6,0 %, Oltinko'l tumani – 5,7 % va Baliqchi tumani – 5,7 % ga tegishli.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

	2022-yil yanvar-sentabr	2023-yil yanvar-sentabr	farqi (+;-)
<b>Jami</b>	<b>4 418</b>	<b>3 272</b>	<b>-1 146</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 123	234	-889
Sanoat	830	674	-156
Qurilish	199	227	28
Savdo	1 477	1 411	-66
Tashish va saqlash	129	155	26
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	144	128	-16
Axborot va aloqa	90	90	0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	109	98	-11
Boshqa faoliyat turlari	317	255	-62


**Ma'lumot uchun:** 2023-yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




**Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda**

	2022-yil yanvar-sentabr	2023-yil yanvar-sentabr	Farqi (+;-)
Andijon sh.	799	764	-35
Andijon t	385	341	-44
Asaka	371	256	-115
Shahrixon	342	198	-144
Marhamat	215	195	-20
Oltinko'1	223	187	-36
Baliqchi	454	187	-267
Qo'rg'ontepa	254	181	-73

2023-yilning yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Andijon shahrida -764 tani tashkil etdi.



**Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda**  
(yanvar-sentabr)






2023-yil yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 7,3 birlikni tashkil etdi.



**Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni**  
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga ko'ra\*




2023-yilning yanvar-sentabrida kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon shahrida 14 birlik, Xonobod shahrida 9,9 birlik, Xo'jaobod tumanida 10,4 birlik, Ulug'nor tumanida 9,7 birlik, Bo'ston tumanida 10,4 birlik, Baliqchi tumanida 6,2 birlikni tashkil etgan. Buloqboshi tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 4,8 birlikka to'g'ri keldi.

\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



2022-2023-yillarning yanvar-sentabrida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\*




2023-yil yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan viloyat bo'yicha 7,3 birlikni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkich shahar va tumanlar kesimida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanganda pasayish bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon shaharda 11,4 birlikka, Xonobod shahrida 7,9 birlikka, Asaka tumanida 4,7 birlikka kamaygan. Ulug'nor tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 1,6 birlikka pasaygan.

\*Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda).



**2023-yilning yanvar-sentabrda har 1000 aholiga to'g'ri keladigan kichik biznes subyektlari soni eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda\***



**Faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)**

**Eng yuqori ko'rsatkich**

- Andijon shahri
- 14 birlik

**O'rtacha ko'rsatkich**

- Oltinko'l tumani
- 6,5 birlik

**Eng past ko'rsatkich**

- Izboskan tumani
- 4,7 birlik

\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)







### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi, (yanvar-sentabr holatiga ko'ra, % da)

2023-yilning yanvar-sentabrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi 68,6 % ni tashkil qildi. (2022-yilning yanvar-sentabrda 68,6 %).

YAHMning o'tgan yilga nisbatan ulushi o'zgarmadi.



### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



**2023-yilning yanvar-sentabrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da**

	<b>Sanoat</b>	<b>Qurilish</b>	<b>Xizmatlar</b>	<b>Investitsiya</b>
<b>Andijon viloyati</b>	<b>22,7</b>	<b>96,1</b>	<b>14,1</b>	<b>70,3</b>
<i>shaharlar:</i>				
Andijon sh.	27,4	91,4	15,0	44,7
Xonobod sh.	33,7	84,3	7,1	39,5
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko‘l	44,2	100,0	4,3	76,9
Andijon	82,2	100,0	6,7	55,8
Baliqchi	68,7	100,0	3,9	84,0
Bo‘ston	57,0	100,0	1,8	50,2
Buloqboshi	100,0	100,0	1,9	97,7
Jalaquduq	62,6	87,7	5,0	76,6
Izboskan	100,0	100	3,6	68,0
Ulug‘nor	65,9	92,2	1,6	89,1
Qo‘rg‘ontepa	50,0	100,0	4,1	61,1
Asaka	1,6	100,0	7,7	39,0
Marhamat	33,7	100,0	5,1	54,7
Shahrixon	86,5	100,0	8,6	24,6
Paxtaobod	41,4	100,0	3,1	82,3
Xo‘jaobod	64,2	100,0	3,9	84,4

Tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi eng ko‘p:

**Sanoatda-**

Buloqboshi (100,0 %),  
Izboskan (100,0 %),  
Shahrixon (86,5 %),  
Andijon (82,2 %),  
Baliqchi (68,7 %),  
Ulug‘nor (65,9 %),  
Xo‘jaobod (64,2 %)  
tumanlarida


**Qurilishda-**

Buloqboshi (100,0 %),  
Izboskan (100,0 %),  
Shahrixon (100,0 %),  
Andijon (100,0 %),  
Baliqchi (100,0 %),  
Xo‘jaobod (100,0 %)  
Bo ‘ston (100,0 %)  
tumanlarida


**Xizmatlarda-**

Marhamat (72,1 %),  
Xo‘jaobod (71,7 %),  
Andijon (71,1 %),  
Oltinko‘l (69,4 %),  
Jalaquduq (69,1 %),  
Xonobod (68 %)  
Baliqchi (67,2 %)  
tumanlarida

2023-yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 259,5 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 29,8 foizini tashkil etdi.




**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da**  
2023-yil yanvar-sentabr holatiga\*




2023-yil yanvar-sentabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Buloqbooshi tumanida – 100,0 %, Izboskan tumanida – 99,9 %, Marhamat tumanida – 83,9 %, Andijon tumanida – 81,6 %, Ulug'nor tumanida – 80,9 %, Shahrixon tumanida – 76,7 %, Paxtaobod tumanida – 73 % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich esa Asaka tumanida – 4,9 % ni tashkil etdi.

\*dastlabki ma'lumot

2023-yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 446,4 million AQSh dollarini yoki umumiy import hajmining 16,3 foizini tashkil etdi.



**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**




2023-yil yanvar-sentabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida – 100,0 %, Izboskan tumanida – 100,0 %, Ulug'nor tumanida – 99,3 %, Shahrixon tumanida – 98,9 %, Jalaquduq tumanida – 98,0 %, Paxtaobod tumanida – 84,2 % va Bo'ston tumanida 81,8 % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich esa Asaka tumanida – 0,6 % ni tashkil etdi.




2023-yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan 10 982,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



**2023-yilning yanvar-sentabrida tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, (mlrd. soʻm)**




Tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (1 836,1 mlrd. soʻm), Xoʻjaobod tumani (1 111,7 mlrd. soʻm), Shahrixon tumani (1 056,0 mlrd. soʻm), Qoʻrgʻontepa tumani (921,8 mlrd. soʻm) va Baliqchi tumani (904 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keladi. Boʻston tumanida (196,7 mlrd. soʻm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past boʻlib qolmoqda.



2023-yil yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 22,7 foizni tashkil etdi.



2023-yil yanvar-sentabr holatiga tuman va shaharlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Tuman va shaharlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Buloqboshi (100,0 %), Izboskan (100,0. %), Shahrixon (86,5 %), Andijon (82,2 %) Baliqchi (68,7 %), Ulug'nor (65,9 %) va Xo'jaobod (64,2 %) tumanlari tashkil etdi. Asaka tumanida (1,6 %) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2023-yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 13 235,0 mlrd. soʻmni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 93,0 foizini tashkil etdi. Oʻsish surʻati 2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 105,4 foizni tashkil qildi.



**2023-yilning yanvar-sentabrida tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va oʻsish surʻati**




Tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Andijon shahri (3 317,9 mlrd. soʻm), Shahrixon tumani (1 821,5 mlrd. soʻm), Asaka tumani (1 144,6 mlrd. soʻm) va Qoʻrgʻontepa tumani (970,4 mlrd. soʻm) hissasiga toʻgʻri keladi.



2023-yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 5 113,4 mlrd. so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 96,1 foizini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 103,4 foizni tashkil qildi.




**2023-yilning yanvar-sentabrida tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes subyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati**




Tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Andijon shahri (1 708,2 mlrd. so'm), Andijon tumani (632,6 mlrd. so'm), Shahrixon tumani (372,1 mlrd. so'm), Oltinko'l (293,3 mlrd. so'm) hamda Paxtaobod tumanlarida (286,1 mlrd. so'm) qayd etildi.




2023-yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9 962,8 mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 64,6 foizini tashkil qildi. 2022-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 6,4 foizga oʻsdi.



**2023-yilning yanvar-sentabrida tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʼati**




Tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Andijon shahri (3 524,7 mlrd. soʻm), Asaka tumani (724,3 mlrd. soʻm), Andijon tumani (676 mlrd. soʻm), Baliqchi tumani (574,3 mlrd. soʻm) va Xoʻjaobod tumani (561,2 mlrd. soʻm) hissasiga toʻgʻri keladi.




2023-yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,2 foizni tashkil etdi. 2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,4 foizni tashkil qildi.


2023-yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 79,4 foizni tashkil etgan bo'lib, 2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 105,8 foizni tashkil qildi.



2023-yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 98 foizni tashkil etib, bu esa 2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 2,2 foizga ko'payishiga olib keldi.



2023-yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,4 foizni tashkil etib, 2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 4,2 foizga ko'payish kuzatildi.



## STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik)** – tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari (tadbirkorlik sub'ektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

**Yuridik shaxs** – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

**Tadbirkorlik sub'ektlari o'z faoliyatlarini** muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

**Chakana savdo bu** – oxirgi foydalanuvchilarga tovarlar va xizmatlar sotish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat.

**Ulgurji savdo bu** – katta miqdordagi tovarlarni sotishni o'z ichiga olgan iqtisodiy faoliyat.

**Kichik va o'rta biznes**\_- mustaqil mulk egaligiga, xo'jalik faoliyatini mustaqil tashkil etishga asoslangan va o'z tarmog'ida hukmron mavqe tutmaydigan biznes. Turli mamlakatlarda kichik va o'rta biznes sub'yektlari maqomini belgilab beruvchi mezonlar sifatida korxonada band bo'lgan ishlovchilar soni, korxonaning tovar aylanmasi, aktivlar, kapitallar, foyda miqdori va boshqa ko'rsatkichlardan foydalaniladi. O'zbekistonda kichik va o'rta biznes sub'ektlarini aniqlashda korxonada ishlovchilar soni mezon qilib olingan.